

JADID MA'RIFATPARVARLARI ASARLARIDA YOSHLAR TARBIYASI

Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna
Termiz davlat universiteti akademik litseyi
Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada jadidlar faoliyati va ularning barkamol avlod tarbiyasi masalalari yuzasidan qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Jadid, jadidlar, sho'ro tuzimi, mafkura, ma'rifatparvarlik, iqtisodiy tazyiqlar.*

KIRISH

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim rol o'ynagan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasini, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi. XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor, Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi.

Bunday g'oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi.

Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy

aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot yoshlarning harakati maorif soyasida vujudga keldi". Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan halos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo do'konlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini orzu qilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar.

Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olmon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, Ona Turkistonning taraqqiyoitdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi. Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar.

Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar.

Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorul saltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqqa sa'y qilinsun.

Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, Orenburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi". Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o'rinda, jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas..... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sha'ringiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz".

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi. Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik. Ko'zimiz bamisoli ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edig-u, soxta "dohiy"lar hayotini - qachon, qayerdatug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatgan - bilar edik, to'g'rirog'i, yodlab olgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig'inar edik. Bu, aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so'z bilan aytganda, qornimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi.

Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining

zamonaviy bilimdon, mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi.

Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar.

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinli, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning on-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011.
2. Karimov I.A. "Biz kelajagimiznio'z qo'limiz bilan quramiz"-T.1999.
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyna"-1914. 41-son
4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). "Sharq"-2001.